

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MATNNI O‘QIB
TUSHUNISH KOMPETENSYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-
USLUBIY ASOSLARI**

*Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika kafedrasida magistranti
umidaeshmatova6@gmail.com*

Eshmatova Umida Abdupayez qizi

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi ta’lim sohasida Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan dasliklar matni asosida PIRLS xalqaro tadqiqotlari talablariga mos holda tuzilgan testlar haqida olib borilgan tadqiqotlarimiz haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqot, boshlang‘ich sinf, o‘qish, PIRLS, islohotlar, matn, topshiriqlar.

Abstract: This thesis reflects on the reforms being implemented in our country in the field of education, our research on tests designed in accordance with the requirements of the international PIRLS research based on the text of textbooks for primary school students.

Keywords: research, primary school, reading, PIRLS, reforms, text, tasks.

Аннотация: В данной дипломной работе отражены реформы, реализуемые в нашей стране в сфере образования, наши исследования по тестам, разработанным в соответствии с требованиями международного исследования PIRLS на основе текста учебников для учащихся начальных классов.

Ключевые слова: исследование, начальная школа, чтение, PIRLS, реформы, текст, задания.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar” kuni munosabati bilan yurtimizdagi o‘qituvchi va murabbiylarga yo‘llagan tabrik nutqida ta’kidlaganidek, “ taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir”. Shu sababli

ham, Prezident: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”¹, –deb e’tirof etdilar va bu o‘zgarishlarni- “Uchinchi Renessans poydevori”ni ta’lim islohotlarida ko‘rishini e’tirof etganlar. Ta’lim jarayoni uzluksiz va tizimli bo‘lib, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan sifatli natijalarga olib keladigan, jahon ta’lim talablariga javob beroladigan islohotlarga bog‘liqdir.

Ushbu tezisda biz asosan umumiy o‘rta ta’limning ilk bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich ta’limning 4-sinf “O‘qish savodxonligi” I qism darsligidagi matlar ustida ishlash va bu matnlarni PIRLS xalqaro tadqiqoti talabiga javob beroladigan mezonlariga alohida e’tibor qaratamiz. Haqiqatan ham, ta’limga xalqaro tadqiqotlar, baholash tizimlari, zamonaviy yondashuvlar ta’lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil qilish va qo‘yilgan o‘quv dasturlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi.

Darhaqiqat, Yurtboshimiz “avvalo maktablarda o‘quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarur”² ligini juda ko‘pbor ta’kidlab o‘tmoqdalar. Bu borada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo‘yicha dunyoda eng ilg‘orlardan biri. Ta’limni isloh qilish haqida fikr yuritar ekanmiz, ta’lim olishning asosiy vositasi bo‘lgan darsliklarni yangilamay turib, o‘quvchi va o‘qituvchi mustaqilligiga erishmasdan natijaga erishib bo‘lmaydi. Finlandiya standarti bilan 1-4-sinflar uchun darsliklar tayyorlana boshladi. Shunday darsliklardan, 2023-yilda U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirovalar tomonidan yaratilgan 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi quyidagi matnlar ustida ishlar olib bordik.

Qari bilganni pari bilmas

(O‘zbek xalq ertagi)

¹ Prezident Sh.Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020

² Prezident Sh.Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020

Qadim zamonda, sharq tomonda aytgani aytgan, degani degan zolim podshoh o'tgan ekan. U boylik, mol-u dunyo uchun hech narsadan tap tortmas ekan. Uning boyligi, hech yerga sig'mas. Biroq uni podshoh sarflash o'rniga to'plagan to'plagan ekan.

Podshoh o'ylab-o'ylab qariyalar ishlamaydi, ulardan foyda yo'q, hammasini shahardan haydash kerak, degan qarorga kelibdi.

Kunlarning birida u shunday farmon chiqaribdi: "Qo'l ostimda har bir tirik jon yetmish yoshgacha tinmay mehnat qilishi kerak. Kimki yetmishdan oshsa, ishga yaroqsiz sanaladi. Uning tirik yurishidan foyda yo'q. Shuning uchun bundaylarning yaqin kishisi tog'ga olib chiqib tashlab kelsin. Kimki bu farmonga amal qilmasa, boshi o'limda, moli talonda!"

Ko'p o'tmay, bu podshohlikda qari kishilar qolmabdi. Shu mamlakatda bir yigit bo'lib, uning xotini, bola-chaqasi va keksayib qolgan otasi bor ekan. Chol yetmish yoshga to'lgan kuni podshoh yasovullari kirib, yigitdan otasini yo'qotib kelishini talab qilishibdi.

Yigit otasi uchun el-u yurtga osh beribdi va otasini yelkalab, tog'ga chiqa boshlabdi. Tog'ning teppasida supaga o'xshash bir yassi tosh bo'lib, hamma shu yerga kelganda dam olar ekan. Yigit ham shu yerga yetib kelibdi. Otasi uning orqasida turib qah-qah otib kulib yubordi.

- Ota, debdi yig'lab, - men sizni to'y tomoshaga emas, zolim zulmi tufayli o'limga olib ketyapman. Siz yig'lash o'rniga kulasiz! Buning sababi nima?

- Ey o'g'lim, - debdi chol,- bu dunyoda yaxshilik ham, yomonlik ham qaytar ekan. Bir zamonlar men ham ojiz, notavon otamni ko'tarib olib kelayotganda, xuddi shu yerga kelganda dam olgan edim. Meni sen o'limga olib borsang, seni ham kun kelib o'g'ling olib boradi, shunga ham yig'lyapaman, ham kulayapman!

Bu gap yigitga qattiq ta'sir qildi va u yig'lab bunday debdi:

Agar meni qiynoqqa solsalar ham, zindonga tashlasalar ham mayli. Sizni men tog'da tashlab ketmayman. Bu zolingayam bir kun o'lim bordir!

Yigit kechasi otasini uyiga qaytarib olib ketibdi. Tom tepasidagi hashaklar orasiga birov ko‘rmaydigan qilib joy qilib beribdi. Chol kunduzlari kapadan chiqmay yotar kechalari hovliga tushib bolalari bilan suhbatlashar ekan. Shu ahvolda kunlar, oylar, yillar o‘ta boshlabdi...³.

Biz tadqiqotimizni yuqorida keltirilgan 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi Qari bilganni pari bilmas nomli O‘zbek xalq ertagi asosidagi PIRLS xalqaro tadqiqoti talablari darajasida savollar tuzishga harakat qildik. Biz ishlab chiqqan savollar boshlang‘ich sinflarda matnni o‘qib tushunish, uning voqealari asosida berilgan topshiriqlarga javob berish ko‘nikmalarini shakllanishida yordam beradi.

I. Asar voqealari ketma-ketligi bo‘yicha.

1.1. Gaplarni asar voqealari tartibida raqamlang.

___ Podshoh o‘ylab-o‘ylab qariyalar ishlamaydi, ulardan foyda yo‘q, hammasini shahardan haydash kerak, degan qarorga kelibdi.

___ Agar meni qiynoqqa salsalar ham, zindonga tashlasalar ham mayli. Sizni men tog‘da tashlab ketmayman. Bu zolimgayam bir kun o‘lim bordir!

___ Ko‘p o‘tmay, bu podshohlikda qari kishilar qolmabdi.

___ Biroq uni podshoh sarflash o‘rniga to‘plagan to‘plagan ekan.

1.2. Gaplarni asar voqealari tartibida raqamlang.

___ Chol kunduzlari kapadan chiqmay yotar kechalari hovliga tushib bolalari bilan suhbatlashar ekan.

___ Yigit otasi uchun el-u yurtga osh beribdi va otasini yelkalab, tog‘ga chiqa boshlabdi.

___ Qo‘l ostimda har bir tirik jon yetmish yoshgacha tinmay mehnat qilishi kerak.

___ Kimki yetmishdan oshsa, ishga yaroqsiz sanaladi. Uning tirik yurishidan foyda yo‘q.

³ 4-sinf “O‘qish savodxonligi” I qism darsligi U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova - “Toshkent” - 2023

II. Asar matni tahlili bilan bog‘liq topshiriqlar.

1. Nima sababdan podshoh qariyalarni shahardan haydash kerak degan qarorga keldi.

- A. qariyalar ishlamaydi, ulardan foyda yo‘q
- B. podshohlikda qari kishilar ko‘pligi uchun
- C. Podshoh sarflash o‘rniga to‘plagani uchun
- D. Podshoh zolim bo‘lgani uchun

2. Qadim zamonda yashagan zolim podshoh yerning qaysi tomonida yashagan?

- A. G‘arb tomonda
- B. Sharq tomonda
- C. Shimol tomonda
- D. Janub tomonda

3. Podshohga berilgan ta’rif tartib bilan berilgan qatorni toping.

- A. Qariyalarni o‘z yurtidan haydagan, boyligi hech yerga sig‘maydigan
- B. Boyligi, hech yerga sig‘mas, sharq tomonda yashagan
- C. Boyligi, hech yerga sig‘mas, biroq uni podshoh sarflash o‘rniga to‘plagani to‘plagan, boylik, mol-u dunyo uchun hech narsadan tap tortmas
- D. U boylik, mol-u dunyo uchun hech narsadan tap tortmas, boyligi, hech yerga sig‘mas, biroq uni podshoh sarflash o‘rniga to‘plagani to‘plagan ekan.

2. Podshoh chiqargan farmon qaysi qatorda berilgan?

A. Uning tirik yurishidan foyda yo‘q. Shuning uchun bundaylarning yaqin kishisi tog‘ga olib chiqib tashlab kelsin. Kimki bu farmonga amal qilmasa, boshi o‘limda, moli talonda! Qo‘l ostimda har bir tirik jon yetmish yoshgacha tinmay mehnat qilishi kerak.

B. Qo‘l ostimda har bir tirik jon yetmish yoshgacha tinmay mehnat qilishi kerak. Uning tirik yurishidan foyda yo‘q. Shuning uchun bundaylarning yaqin kishisi tog‘ga olib chiqib tashlab kelsin.

C. Qo‘l ostimda har bir tirik jon yetmish yoshgacha tinmay mehnat qilishi kerak. Kimki yetmishdan ohsa, ishga yaroqsiz sanaladi. Uning tirik yurishidan

foйда yo‘q. Shuning uchun bundaylarning yaqin kishisi tog‘ga olib chiqib tashlab kelsin. Kimki bu farmonga amal qilmasa, boshi o‘limda, moli talonda!

D. Uning tirik yurishidan foyda yo‘q. Shuning uchun bundaylarning yaqin kishisi tog‘ga olib chiqib tashlab kelsin. Kimki yetmishdan oshsa, ishga yaroqsiz sanaladi.

3. Chol nima uchun ham yig‘ladi, ham kuldi?

A. Bu dunyoda yaxshilik ham, yomonlik ham qaytar ekan. Bir zamonlar men ham ojiz, notavon otamni ko‘tarib olib kelayotganda, xuddi shu yerga kelganda dam olgan edim. Meni sen o‘linga olib borsang, seni ham kun kelib o‘g‘ling olib boradi, shunga ham yig‘lyapaman, ham kulayapman!

B. Podshohlikdan haydalgani uchun hafa bo‘lgandan yig‘ladi.

C. Nabiralaridan uzoqqa ketayotgani uchun ayriliqqa chidolmay yig‘ladi.

D. U ham otasini oldin shu yerga olib kelganini eslab yig‘ladi.

5. Yigitning : Agar meni qiynoqqa solsalar ham, zindonga tashlasalar ham mayli. Sizni men tog‘da tashlab ketmayman. Bu zolimgayam bir kun o‘lim bordir! - degan so‘zlariga o‘z munosabatingizni yozing.

4. Yigitning so‘zlari berilgan javobni toping.

A. Bu dunyoda yaxshilik ham, yomonlik ham qaytar ekan.

B. Bir zamonlar men ham ojiz, notavon otamni ko‘tarib olib kelayotganda, xuddi shu yerga kelganda dam olgan edim.

C. Agar meni qiynoqqa solsalar ham, zindonga tashlasalar ham mayli. Sizni men tog‘da tashlab ketmayman. Bu zolimgayam bir kun o‘lim bordir!

D. Meni sen o‘linga olib borsang, seni ham kun kelib o‘g‘ling olib boradi

5. Ertak haqida o‘z xulosangizni yozing.

Yuqorida keltirilgan savollar asosida o'quvchilar berilgan matni o'qishadi, ulardagi voqealar asosida tuzilgan savollarga javob berishadi. Asar haqidagi o'z xulosalarini yozgan holda matn jarayonidagi tushunchalarini umumlashtiradi.

Xulosa sifatida, boshlang'ich sinf o'quvchi shaxsiyati, bilimi, malakasi, ma'naviy qiyofasi ana shu til ta'sirida shakllanadi. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu – o'quvchilarning matni o'qib tushunish va matn voqealari asosida tuzilgan xalqaro testlar uchun tayyorlashdan iboratdir. Zamonaviy ta'lim O'zbekiston yoshlarini istiqbolli kelajak sari yetaklaydi. Ta'lim-tarbiya, bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak deb hisoblaymiz.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020
2. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.
3. "4-sinf o'qish darslarida adabiy taxlil ko'nikmalarini shakllantirish" Hilola Bakiyeva "Nodirabegim" nashriyoti Toshkent - 2021
4. 4-sinf "O'qish savodxonligi" I qism darsligi U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova - "Toshkent" - 2023
5. <https://kun.uz/uz/news/2022/10/08/>